



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

CHO'LPON SHE'RIYATIDA EKOLOGIK POETIKA ELEMENTLARI (dendrar obrazlar misolida)

Rustamova Gavhar Bahron qizi,

BuxDU doktoranti,

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d. PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada Cho'lponning 1920–1930-yillarda yozilgan she'rlarida daraxt obrazi badiiy va g'oyaviy jihatdan tahlil qilinadi. Shoir ijodida daraxt timsoli tabiat manzaralarining markazida turib, hayot, onalik, ruhiy uyg'onish, milliy izzat va ozodlik g'oyalarini mujassam etadi. "Tabiat kitobidan", "Zangbuning qizi", "Ko'klam keladir" hamda "Kuz" she'rlaridagi poetik obrazlar orqali tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi uzviy aloqadorlik, tashxis va metaforik ifodaning estetik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, daraxt obrazi, tabiat lirizmi, tashxis, antropomorfizm, milliy ruh, ozodlik g'oyasi, badiiy metafora.

Jadid adabiyotining adabiyotining yirik vakili Cho'lpon poetikasida tabiat manzaralari inson ruhiyati, jamiyat hayoti va milliy o'zlik bilan uzviy bog'langan. Uning she'rlarida daraxt obrazi nafaqat tabiatning go'zallik timsoli, balki inson ruhining, millat izzati va erkinlik istagining badiiy ifodasiga aylanadi. 1920–1930-yillar ijtimoiy-siyosiy muhitida yaratilgan "Tabiat kitobidan", "Zangbuning qizi", "Ko'klam keladir" va "Kuz" singari bir qator she'rlar Cho'lponning tabiat lirikasidan falsafiy-ijtimoiy lirika sari o'tish jarayonini ko'rsatadi.

Ijodkorning 1927-yilda yozilgan "**Tabiat kitobidan**" she'ri o'zbek adabiyotida tabiat orqali inson ruhiyatini badiiy ifodalashning eng teran namunalaridan biridir. She'rda ikki fasl – bahor va kuz manzaralari o'zaro qarama-qarshi holatda tasvirlanib, hayot va so'nish, yashash va tanazzul dialektikasini ochib beradi. She'rning markazida esa daraxt obrazi turadi – u hayot, go'zallik, ruhiy uyg'onish va insoniyatning ichki izzatlarini mujassam etuvchi timsolga aylanadi:

*Bolalari – daraxtlarni emzib,
Shoxlaridan ko'zlarini olmaydn,
Har kun yangi bir «ustu bosh» kiygizib,
Yasantirib charchamaydi, tolmaydi,
Daraxtlar ham sog'lom, tetik boladay
Har kun emas, har nafasda o'sadi.
Ko'lankann yoyib tashlab toladay —
Ona yernnng yuzlarini to'sadi... [181]*

Bahor tasvirida daraxt hayotiy uyg'onish va onalikning ramzi sifatida gavdalanadi. Yer "ona" obrazida jonlanib, daraxtlar uning mehr bilan parvarishlayotgan bolalari sifatida ko'rsatiladi: "*Bolalari – daraxtlarni emzib, shoxlaridan ko'zlarini olmaydi...*" Bu satrlarda yerning onalik arxetipi va daraxtning bolalik timsoli uyg'unlashadi. Cho'lpon daraxtni hayotning eng sof, eng tabiiy ifodasi deb biladi – u "*har nafasta o'suvchi*", "*tetik bola*" tarzida tasvirlanadi. Shunday qilib, shoir daraxt orqali yashash istagini, tabiatdagi hayotiy davomiylikni va quvonchni kuylaydi.

*Ko'kragnda g'azab o'ti qalanib,
Har o'tgandan bir o'ch olish qasdida,
Daraxtlarga qaragisi kelmaydi.
Emchagida bir tomchn ham suti yo'q.
Boshi qotib na qilishni bilmaydi, [1; 182]*

Ammo she'rning ikkinchi qismida – kuz tasvirida – bu uyg'unlik so'nadi. Bahorgi jonli daraxt endi holdan toygan, quvvatini yo'qotgan mavjudot sifatida ko'rsatiladi: "*Daraxtlarga qaragisi kelmaydi, emchagida bir tomchi ham suti yo'q...*" Bu yerda ona tabiatning hayot suvi qurigan, shuning uchun daraxtlar ham ojiz, ovozsiz va hayotsizdir. Ularning "*og'zi soqov, qulog'i kar*" bo'lishi inson ruhiyatidagi charchoq, umidsizlik va ma'naviy so'nishni ifodalaydi.

Cho'lpon kuzgi barglarning "sochilib, chirib, yerni qoplagani" orqali hayotning doimiy aylanishini, o'tkinchilik va qayta tug'ilish falsafasini badiiy shaklda ko'rsatadi:

*Daraxlar-da og'iz — soqov, quloq – kar...
Kuz shamoln barglar uchun bir nashtar:
Sanchiladi, jonlarini oladi,
Yuksaklardan quynlarga soladi.
Sil yaproqlar shntirlashib yerlarda
Jon talashib, buralishib yotarlar.*

She'rning bu manzaralari zahirida shoir yashagan davr – 1920-yillarning ruhiy va ijtimoiy og'riqlari ham aks etadi. Tabiatning so'nishi – bu shunchaki fasl o'zgarishi emas, balki millatning ichki iztirobi, ruhiy ezilishi metaforasidir. Daraxt bu yerda "jabrdiyda inson" holatini, xalqning jim, ammo og'riqli hayotini ifodalaydi. Shunday qilib, daraxt obrazi nafaqat tabiat timsoli, balki jamiyat va inson ruhining badiiy ko'zgusiga aylanadi.

Tabiatga insoniy tuyg'ular berish – Cho'lpon poetikasining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, bu usul orqali shoir hayotning ichki musiqasini, ruhiy ohangini his ettiradi. Yengil pafos va tashxisning go'zal namunasi sanalgan **"Zangbuning qizi"** she'ri shoir poetikasining eng nozik va nafis qatlamini ochib bergan. *Zangbu* yoki *zangbibi* – tok novdasi, uzumning zanggi demak. She'rda tabiat manzarasi, lirizm va hayotiylik. insoniy his-tuyg'ular bilan o'zaro uyg'unlashgan:

*So'rtaklar yuziga cho'zilgan "zangbu"
Qizi "yaprohxon"ni uyg'otib olib,
Yasan-tusaniga erta-kech boshlar,
Bilgan hunarini o'rta tashlar.*

Quyidagi satrlarda tong shabadasi insoniylashtirilgan (antropomorfizatsiyalangan) obraz sifatida tasvirlanadi. Shamol "o'pib o'tadi" — bu harakat hissiy, iliq, mehrga to'la. Shabada endi shunchaki tabiiy hodisa emas, balki hayotning uyg'onish lahzasini ifodalovchi poetik sub'ektga aylanadi. Urik gullari esa bu lirik holatda nozik, beg'ubor, hayotning yangi nafasini o'zida mujassam etgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Shu tarzda Cho'lpon tabiat manzarasini sevgi va hayot quvonchining metaforasiga aylantiradi.

*"Erta saharlarda tong shabadasi,
Urik gullarini o'pib o'tkandir."*

Keyingi misralarda shoir o'ziga xos milliy-estetik ohangni yaratadi:

*"Meni ham o'pmasin juvon o'lgur!" – deb,
Shaftoli yaprog'i yuz berkitgandir..." [1; 183]*

Bu satrlarda tabiatga hayo va iffat kabi insoniy hislar singdiriladi. Shaftoli yaprog'ining "yuz berkitishi" – insoniy uyalish, or-nomus va iffat ramzidir. Cho'lpon bu orqali tabiatni shunchaki estetik obyekt emas, balki axloqiy va hissiy qimmatga ega mavjudot sifatida tasvirlaydi. "Juvon o'lgur" iborasi esa xalq og'zaki nutqining iliq, samimiy ifodasini eslatadi.

"Ko'klam keladir" she'rida daraxt obrazi vositasida Istiqlol, milliy ozodlik va yorug' kunlar kelishiga umid ifodalanadi. Shoir nazdida *"Qip-yalang'och daraxtlar"* ko'k ko'ylakning bitishini – yorug' kunlar kelishini intizorlik bilan kutayotgan yo'qsil xalq, xalqni qaqshatayotgan mustabid tuzum amaldorlari esa bu daraxtga vaqtinchalik qo'ngan qarg'alardir:

*Qip-yalang'och daraxtlar ham quchoq ochib, ko'z tutib,
Ko'k ko'ylakning bitishini, chidamasdan kutalar.
Qarg'alar ham qishda qilgan, gunohlarni unutib,
Uzr aytmadan, indamasdan, uchib-uchib ketalar... [1; 73]*

Ushbu g'oyaning mantiqiy davomini Cho'lponning 1934-yilda yozilgan "Kuz" she'rida ham ko'rish mumkin. Unda shoir zohiran tabiat manzarasini tasvirlagandek tuyulsa-da, aslida milliy ruh, ozodlik va mustamlakachilik zulmiga qarshi ichki norozilik g'oyasi yashiringan:

Daraxtlar taniga tirmashdi izg'irin,

*Shoxlarga ilonday chnrmashdi izg'irnn.
Qo'llari barglarning betida surundi,
Barglarning bandinn qirt etib kesishga
Urundi...[1; 121]*

Shoir "izg'irin" obrazini zulm, sovuq siyosiy muhit va erkinlikni siqib qo'yuvchi kuch timsolida beradi. "Daraxt taniga tirmashgan izg'irin" yoki "shoxlarga ilonday chirmashgan izg'irin" kabi tasvirlar xalqning tanasiga yopishgan zulm, xalq ustiga chirmashgan mustamlaka siyosatining badiiy ifodasidir.

Daraxt esa Cho'lpon poetikasida har doim hayot, millat, ildiz va o'zlik ramzidir. Izg'irinning tajovuziga qaramay daraxtning turishi – xalqning ichki iroda va bardosh timsolidir. "Mayli, har daraxtga tirmashsin izg'irin!" degan qat'iy ohang tashqi tomondan taslimlikdek tuyuladi, ammo unda xalqning mustahkam sabri, ichki qarshilik ruhi, yashirin g'ururi mujassam:

*Mayli,
Har daraxtga tirmashsin izg'irin!
Shoxlarga ilonday chirmashsin izg'irin!
Qish agar
Mayliga,
Io'llasa nomasin!
Boshlasa
Beta'sir,
Yeqimsiz nag'masin!
Biz,
Qishdan
Yezlarning rizqini olamiz!
Qishni ham,
Yozni ham
Rejaga solamiz! [1; 122]*

Parchaning so'nggi misralarida shoir "Biz qishdan yozlarning rizqini olamiz! Qishni ham, yozni ham rejaga solamiz!" deya yozar ekan, bu ifodalar orqali sovet mafkurasining "reja" va "mehnat" shiorlarini kinoyaviy tarzda teskari ma'noda ishlatadi. Bu yerda "rejaga solish" tabiiy hayotning, inson erkinligining, hatto tabiatning o'z qonuniyatini buzish – ya'ni mustabid tuzumning sun'iylik va zo'ravonlik mohiyatini fosh etadi.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon she'riyatida daraxt obrazi ko'p qatlamli ma'noga ega bo'lib, u hayotning davomiyligi, onalik mehrini, inson ruhining uyg'onishini hamda millatning og'riqli taqdirini ifodalaydi. Shoir tabiat obrazlarini insoniylashtirish orqali zamon ruhi va milliy tuyg'ularni poetik tilda ifodalagan. "Kuz" she'ridagi izg'irin va "Ko'klam keladir"dagi qarg'alar timsoli mustamlaka zulmi va xalqning bardoshi o'rtasidagi ichki drammatizmni ochib beradi. "Biz qishdan yozlarning rizqini olamiz" satrida esa Cho'lpon sovet mafkurasini kinoyaviy tarzda fosh etadi. Demak, daraxt Cho'lpon poetikasida hayot, ruhiyat va ozodlikning badiiy sintezi sifatida talqin qilinadi – u inson va tabiat birligining, milliy o'zlikning va ruhiy erkinlik ramzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulhamid Cho'lpon. Asarlar: III jildlik / O.Sharafiddinov tahriri ostida. I jild. – T.: G'afur G'ulom, 1994. – 448 b.
2. Abdulhamid Cho'lpon. She'rlar. – T.: Ma'naviyat, 1997. – 128 b. (Istiqlol qahramonlari)
3. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013.
4. Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 186-192.

5. 6. kizi Rustamova, G. B. (2025). TRANSFORMATIONAL ASPECTS INHERENT IN DENDRICAL IMAGES IN NEW UZBEK LITERATURE. Bulletin news in New Science Society, 2(6), 291-298.
7. Bakhronovna, G. R. (2023). The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(5), 237-242.
8. Rustamova, G., & Sharofova, G. (2024). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KO'Z BILAN BOG 'LIQ SOMATIK OBRAZLAR DINAMIK POETIKASI. Solution of social problems in management and economy, 3(1), 43-46.
9. Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 186-192.
10. Bakhronovna, R. G. (2024). Irony as a Type of Movement in Artistic Literature. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 231-235.
11. Saidakhmedovna, U. D., & Bakhronovna, R. G. (2022). Some Comments on the Expression of the Image of "Life Tree" In Legends and Narrations. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(6), 51-55.
12. OBRAZINING, Q. (2020). O'ZIGA XOS TALQINLARI. НамДУ илмий ахборотномаси, 1, 5-311.
13. Kizi, R. G. B., Ubaydullayevna, N. Y., & Kizi, M. M. I. (2020). The image of trees in folklore: Genesis and poetic interpretations. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 6342-6349.
14. Рустамова, Г. (2021). ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон қизи Бухоро давлат университети таянч докторанти. In Научно-практическая конференция (Vol. 1, pp. 287-291).